

"SANOAT VA XIZMAT KO'RSATISH SOHALARINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: TENDENSIYALAR, BOSHQARUV, STRATEGIYALAR"

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami
2022 yil 2-3 mart



**"Digital Transformation of Industry and Services: Trends,
Management, Strategies" collection of abstracts
March 2-3, 2022**

**«Цифровая трансформация промышленности и сферы услуг:
тенденции, управление, стратегии» сборник тезисов
2-3 марта 2022 года.**

**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
IQTISODIYOT VA TURIZM FAKULTETI**

**“SANOAT VA XIZMAT KO'RSATISH SOHALARINING RAQAMLI
TRANSFORMATSIYASI: TENDENSIYALAR, BOSHQARUV,
STRATEGIYALAR”**

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami

2022 yil 2-3 mart

**«ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ И СФЕРЫ УСЛУГ:
ТЕНДЕНЦИИ, УПРАВЛЕНИЕ, СТРАТЕГИИ»**

**сборник тезисов
2-3 марта 2022 года**

**“DIGITAL TRANSFORMATION OF INDUSTRY AND SERVICES:
TRENDS, MANAGEMENT, STRATEGIES”**

**collection of abstracts
March 2-3, 2022**

**“Durdona” nashriyoti
Buxoro – 2022**

Паязов М.М.	Хизмат кўрсатиш соҳаларининг рақамли трансформацияси: тенденциялар, бошқарув, стратегиялар	202
Алимжанов Н.Х.	Рақамли трансформация шароитида электрон турдаги суғурта хизматларини такомиллаштириш	206
Курбанов Ф.Г.	Цифровые технологии – важный инструмент музейной коммуникации	211
Рустамов Н.И.	Иқтисодиёт тармоқларини трансформациялашга доир назарий қарашлар ва уларнинг илмий асослари	215

4-SHO'BA:

MINTAQAVIY VA TARMOQ IQTISODIYOTINING INNOVATSION RIVOJLANISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

Ивлиева О.В.	Информационная обеспеченность разделов «туризм» на туристских сайтах субъектов Северного Кавказа	220
Муталиева Л.М.	Стратегические и тактические проблемы развития кадровой политики в отельном бизнесе Казахстана	226
Рахманов С.У.	Возможности развития внутреннего туризма в Бухарской области	231
Хидирова Г.Р.	Роль интернета в развитии устойчивого туризма в Узбекистане	236
Касимова Ш.М.	Formation of a tourist brand in the Republic of Kazakhstan	239
Таджиева С.У.	Turizmda transport xizmatlarini optimallashtirish chora tadbirlari	244
Акрамова Н.А.	The role of advertising in the movement of Bukhara tourism destination	248
Zharkenov B.R.,	Priorities for improving the quality of hotel services through innovative development	252
Mukanov A.H.	Turizmning axloqiy o'lchamlari	256
Mutaliyeva L.M.	The role of culture and arts in society and the development of managerial skills of leaders in this field	260
Axmatova M.E.	Inson kapitali va undan foydalanish samaradorligini oshirish omillari	263
Bozorova S.K.	The role of diversification in the world economy	267
Rajabov O.O.	Mintaqalar iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirish istiqbollari	270
Davronov I.O.	Tourism development strategies in the scope of carec counries initiatives	273
Nurov Z.S.	Mintaqalar va tarmoqlar iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish muammolari va istiqbollari	276
Yuldashev K.Sh.	Organizational and economic mechanisms for ensuring the innovative development of science and services in the conditions of the formation of an innovative economy	280
Radjabov O.O.	Reunite the lost ties with the help of nostalgic tourism	284
Hamroyev H.R.	The role and importance of tourism in the development of the country and the region	286
Navruz-zoda L.B.	Ta'lim turizmi mohiyati va mamlakat iqtidiyotini rivojlantirishdagi o'rni	290
Negmurodova Sh.		
Jo'rayeva Z.T.		
Kamolov X.		
Abdullayev A.J.		
Saidova F.K.		
Rajabova M.A.		
Djabbarov I.G.		
Berdikulova S.T.		
Djuraeva D.D.		
Tukhtaev T.T.		
Ibragimov N.S.		
Khidirova G.R.		
Maxmudova N.O'.		

4. Khidirova G. The importance of the region's socio-economic potential of the tourism market //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2018. – Т. 7. – №. 11. – С. 160-168.
5. Khidirova G. The methods of identify impact of leading idustry on social-economical development //International Finance and Accounting. – 2018. – Т. 2018. – №. 4. – С. 15.
6. Khidirova G. The world experiance of providing economical development in the region //International Finance and Accounting. – 2018. – Т. 2018. – №. 5. – С. 11.
7. Khidirova G. R. et al. The SWOT analysis of eco-tourism in Bukhara region and suggestions for its improvement (in the example of "Jayran" eco-centre) //The Third International Conference on Economic Sciences. – 2014. – С. 82-87.
8. Хидирова Г. Р. Новые технологии и инновации-важный фактор развития туризма в Узбекистане //Современные тенденции и актуальные вопросы развития туризма и гостиничного бизнеса в России. – 2017. – С. 469-471.
9. Хидирова Г. Р. Потенциал и пути развития международного экотуризма в Бухарском регионе Узбекистана //Современные инновации. – 2016. – №. 8 (10). – С. 41-43.
10. Хидирова Г. Р. Потенциал и пути развития международного экотуризма в Бухарском регионе Узбекистана //Современные инновации. – 2016. – №. 8 (10). – С. 41-43.
11. Khidirova G. EFFECTIVE USE OF NATURAL AND ECONOMIC POTENTIAL OF THE REGION //Wishing to all of you a very Happy New Year 2019. – С. 8.

Buxoro davlat universiteti
tayanch doktoranti
Maxmudova Nodira O'ktamovna

TA'LIM TURIZMI MOHIYATI VA MAMLAKAT IQTIDIYOTINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNINI

Аннотация

В данной статье изучается сущность термина "образовательный туризм" и его формы. Образовательный туризм рассматривается нами как феномен интеграции образования и туризма через организацию туристского образования. Также освещен роль образовательного туризма на туристическом рынке. Проанализированы данные о факторах роста и ограничениях, влияющих на траекторию роста до 2031 года, на основе исследований рынка образовательного туризма, проведенной Future Market Insights (FMI).

Ключевые слова: Образовательный туризм, путешествия, образование, концепция образовательного туризма, рынок образовательного туризма.

Annotation

This article examines the essence of the term "educational tourism" and its forms. Educational tourism is considered by us as a phenomenon of integration of education and tourism through the organization of tourism education. The role of educational tourism in the tourism market is also highlighted. Analyzed data on growth drivers and constraints affecting the growth trajectory to 2031 based on Future Market Insights (FMI) education tourism market research.

Key words: Educational tourism, travel, education, educational tourism concept, the market of educational tourism.

Jahon sayyohlik tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, turizm sohasi bugungi kunda millionlab daromad keltiradigan va o'sish tendentsiyasiga ega bo'lgan eng kuchli sohalardan biridir. Sayohat qilish dunyoqarashni kengaytiradi va odamlarni insoniy qadriyatlar, shaxsiy tajriba, hissiyotlarni rivojlantirishga undaydi. Turizm sohasidagi ushbu barcha uslublar orasida ta'lim

turizmi ushbu ikki tarmoqni osonlikcha va sodda tarzda birlashtirishga imkon beradigan yangi texnologiyalar tufayli ajralib turadi. XXI-asrda xalqaro ta'lim turizmining jadal rivojlanishi jamiyat taraqqiyotining hozirgi darajasi va xususiyatlari bilan bog'liq. Shunday qilib, vaqt tanqisligi va imkoniyatlarning xilma-xilligi sharoitida hayotning tez sur'atlari, shuningdek, faol sog'lom turmush tarzi xususiyatlarining mustahkamlanishi bo'sh vaqtga muqobil yo'nalish sifatida ta'lim turizmining o'rini belgilab berdi.

Turistik sayohatni maxsus ta'lim dasturlari, dam olish, ishlash va sevimli mashg'ulot bilan shug'ullanish bilan uyg'unlashtirish bugungi kunda vaqtdan oqilona foydalanish imkoniyati hamda yoqimlilik va foydalilik o'rtasidagi ratsional muvozanat sifatida qabul qilinadi. Dunyo bo'ylab sayohatchilarning 70% ga yaqini aynan shunday "foydali dam olish" ni tanlaydi [1].

Turizm va ta'limga oid zamonaviy o'zbek lug'atlar va o'zbek tilining izohli lug'atlaridan izlanishlar bu tushunchaning talqini yo'qligini ko'rsatdi.

Qator xorijiy adabiyotlarda ta'lim turizmi tushunchasining mohiyati bilim olish va o'rganish maqsadi mavjud bo'lgan ekskursant va tunab qoladigan mehmonlarning faoliyatida aks etadi deb yoritilgan. Bunda madaniy, ekologik va kattalar uchun ta'lim turizmi dasturlari nazarda tutilgan[2]. Aslida, bilim olish sayohatning asosiy maqsadidan iborat bo'lgan shunday segment mavjud. Xorijiy muallif fikricha, ushbu segmentga universitetda, til o'rgatuvchi maktablarda tahsil olish va maktablardagi turli ekskursiyalarni kiritgan. Boshqa segmentlarga esa turizm birlamchi hisoblanib, ta'lim olish, yangi bilimlarni o'zlashtirish ikkinchi darajali maqsad sifatida qaraladi.

Xalqaro institusional tuzilmalarga murojaat qilganda(Butunjahon turizm tashkiloti-Turizm statistika sohasida xalqaro tavsiyalar), ta'lim olish va kasbiy tayyorgarlikni nazarda tutuvchi sayohatlar quyidagi ko'rinishdagi faoliyatlarda aks etadi:

- qisqa muddatli kurslarda tahsil olish;
- rasmiy kurslarda qatnashish orqali kasbiy malaka kompetensiyalarini egallash.

Bunda, "ta'lim turizmi" tushunchasi odatdagi muhitdan farqli bo'lgan bir yilgacha bo'lgan muddatda ma'lum bir yo'nalishga sayohat qiluvchi hamda iqtisodiy manfaatdorlikni nazarda tutmagan har qanday faoliyatda ifodalanadi [3].

Darhaqiqat, chet ellik mualliflar ta'lim turizmi kontseptsiyasini belgilashda faollik yondashuviga amal qiladilar, deb aytishimiz mumkin.

"Ta'lim turizmi" atamasini "madaniy turizm", "ta'lim turizm", "madaniy va ekskursion-kognitiv turizm" kabi turizm turlaridan kelib chiqqan.

Qator mualliflarning ta'lim turizmi muhim iqtisodiy kategoriya sifatida qaralgan ilmiy ishlarida, ta'lim turizmi tushunchasiga berilgan aksariyat ta'riflar bir tomonlama yondashuvga ega, ya'ni turistik xizmatni alohida ishlab chiqarish bosqichlari aks ettirilmagan, deb ta'nqid qilishgan. Ular fikricha, ta'lim turizmi xizmatlari ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste'mol bosqichlaridan iborat iqtisodiy munosabatlarni milliy hamda xalqaro ko'lamda o'z ichiga oladi [4]. Bu ta'lim turizmi kontseptsiyasini belgilashga iqtisodiy yondashuv deb ataladi.

O'z navbatida, boshqa mualliflar ta'lim turizmini turistik sayohatlar majmuasi, turistlarni ta'lim olish maqsadi realizatsiyasi, ularning biror ob'yektga qiziqishini hamda narsa, hodisalarni o'rganishga bo'lgan boshqa ehtiyojlarini qondirish yo'naltirilgan ekskursiyalar majmuasi, turistik sayohatlar kompleksi deb ta'riflaydilar. O'z navbatida bu ta'lim turizmi kontseptsiyasini belgilashga ehtiyojga yo'naltirilgan yondashuv sanaladi.

Yana bir yondashuv- dasturiy yondashuvni ko'rib chiqamiz. Uning xususiyati ta'lim turizmini joriy ta'lim dasturlari doirasida ta'lim muassasalari tomonidan belgilangan vazifalarni bajarish maqsadlariga erishish uchun amalga oshiriladigan o'quv sayohatlari tizimi sifatida ko'rib chiqishni taklif qiluvchi mualliflarning ta'rifida aks etadi [5].

Boshqa mualliflar ta'lim turizmini ma'lum ta'lim dasturlari doirasida sifatli ta'lim xizmatlarini olish maqsadlariga erishish uchun ixtisoslashgan mamlakatlar va mintaqalarga shaxslar, guruhlarining sayohatlari deb ta'riflaydilar [6].

Bu erda ta'lim turizmi kontsepsiyasini belgilashga dasturiy yo'naltirilgan yondashuv, shuningdek, hududiy va iste'molchilar segmentlariga asoslangan birgalikda amalga oshirilgan yondashuv haqida so'z yuritish mumkin.

Va nihoyat, boshqa bir muallif ta'kidlaganidek, ta'lim turizmi turistning malakasini oshirishning bir qismi sifatida zaruriy ta'lim olish doirasida bir kundan olti oygacha davom etadigan, ayni paytda vaqtincha bo'lish joyida iqtisodiy daromad ko'rmaslik sharti bilan qilinadigan sayohatlar to'plamidir. Ular turli kurslarda qatnashish va stajirovkalarni o'z ichiga oladi [7]. Bu esa ta'lim turizmi kontsepsiyasini belgilashga faol yondashuv, shuningdek, hududiy va vaqtinchalik xususiyatlarga asoslangan birgalikda amalga oshiriladigan yondashuv izohlaydi.

Xorijiy va mahalliy mualliflarning yuqoridagi barcha ta'riflarini umumlashtirib (1-jadval), shuni ta'kidlaymizki, umuman olganda "ta'lim turizmi" tushunchasi turli ta'lim maqsadlarini amalga oshirish doirasidagi sayohatlar yoki ularning majmuasidir. Shuni ham ta'kidlash kerakki, aksariyat mualliflar bunday sayohatlarda ko'rsatilgan ta'lim maqsadi yagona ham emas, shuningdek, alohida holatlarda asosiy ham emasligini ta'kidlaganlar.

1-jadval. Ta'lim turizmining asosiy ta'riflari

№	Muallif	Ta'rif
1.	Ritchie Brent W. Managing educational tourism. B., 2003. P. 181	Sayohatdan asosiy maqsad bilim olish (universitetlarda, til maktablarida o'qish, maktab sayohatlari).
2.	Butunjahon Turizm Tashkiloti	Ta'lim turizmi odatdagi muhitdan tashqari ma'lum bir yo'nalishga, davomiyligi bir yilga bo'lgan qisqa kurslarda o'qish, ta'lim dasturlari o'tash, kasbiy ko'nikma va malakalarni egallash maqsadidagi sayohatdir.
3.	Лунин Э. А. Совершенствование управления образовательным туризмом в РФ: автореф. дис. на соиск. учен. степ. канд. экон. наук (08.00.05) / Лунин Эдуард Андреевич; Санкт-Петербург. гос. ун. — Санкт-Петербург, 2009. с. 38.	"Ta'lim turizmi" atamasini "madaniy turizm", "ma'rifiy turizm", "madaniy va ekskursiv-kognitiv turizm" kabi turizm turlaridan iborat deb chiqqan.
4.	Лебедев А. Р. Образовательный туризм как экономическая категория / А. Р. Лебедев // Современная экономика: проблемы, тенденции, перспективы. - 2012. - № 6. - С. 5.	Ta'lim turizmi xizmatlari ishlab chiqarish taqsimot, ayirboshlash va iste'mol bosqichlarini iborat iqtisodiy munosabatlarni milliy hamda xalqaro ko'lamda o'z ichiga oladi.
5.	Зорин И. В., Квартальнов В. А. Энциклопедия туризма: Справочник. — М.: Финансы и статистика, 2003, 33-б	Ta'lim turizmini turistik sayohatlar majmuasini ta'lim olish maqsadi realizatsiyasi uchun ularning biror ob'yektga qiziqishini hamda mahalliy hodisalarni o'rganishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish yo'naltirilgan ekskursiv sayohatlar majmuasi, turistik sayohatlar kompleksidir.
6.	CyberLeninka ilmiy-elektron kutubxonasi. https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennoe-sostoyanie-i-perspektivy-razvitiya-obrazovatel'nogo-turizma-v-rossii	Ta'lim turizmi- joriy ta'lim dasturlari davom etadigan ta'lim muassasalari tomonidan belgilangan vazifalarni bajarish maqsadlariga erishish uchun amalga oshiriladigan o'quv sayohatlar tizimi.
7.	Chebota Yu.M. Turizm biznesi. Sayohat agentliklari va ularning mijozlari uchun amaliy qo'llanma / Yu. M. Chebota. - Moskva: Biznes kitoblari olami, 1997. S.13	Ta'lim turizmi ma'lum ta'lim dasturlari davom etadigan sifatlari ta'lim xizmatlarini olish maqsadiga erishish uchun ixtisoslashgan mamlakatlar mintaqalarga shaxslar, guruhlar

		sayohatlaridir.
8.	Salomon M., Sokolowski S., Haddock M. Measuring the economic value of volunteer work globally: concepts, Estimates and a roadmap to the future // Annals of Public and Cooperative Economics. - 2011. - 82(3). - P. 217 -252.	Ta'lim turizmi bilim olish va o'rganish maqsadi mavjud bo'lgan ekskursant va tunab qoladigan mehmonlarning faoliyatida aks etadi.
9.	Дойль П. Маркетинг-менеджмент и стратегия / пер. с англ. С. Жильцов - 3-е изд. - СПб: Питер, 2002. - 538 с.	"Ta'lim turizmi" tushunchasi odatdagi muhitdan farqli bo'lgan bir yilgacha bo'lgan muddatda ma'lum bir yo'nalishga sayohat qiluvchi hamda iqtisodiy manfaatdorlikni nazarda tutmagan har qanday faoliyatda ifodalanadi.

Manba: muallif ishlanmasi

Fikrimizcha, bunday bayonot to'g'ri emas, chunki sayohatlarning asosiy maqsadi har doim turizm turini belgilab bergan va joriy holatda ta'lim olish maqsadidagina sayohat bo'lmasa, unda turizm turi ham o'zgacha bo'ladi. Shuningdek, ta'lim turizmi doirasida qiziqish va boshqa kognitiv qiziqishlarni qondirish bilan bog'liq bir qator maqsadlarni ajratib ko'rsatish to'g'ri emas, chunki "turizm" bilish jarayonlari va yangi bilim va taassurotlar olish bilan bog'langan. Shuni ham hisobga olish kerakki, chet ellik va mahalliy mualliflar tomonidan sayohatning ta'lim maqsadlarini amalga oshirish uchun ajratilgan vaqtni 6 oygacha deb eslatib o'tishni noo'rindir, chunki sayohatchi (turist) tashrif buyurilgan manzilda bir yilgacha muddatda istiqomat qilishi mumkin.

Demak, agar sayohat muddati bir yildan ortiq bo'lsa, unda sayyoh migrant yoki doimiy rezident hisoblanadi. Shuningdek, ta'lim turizmi kontseptsiyasini belgilashda muhim kamchilik sifatida ta'lim turizmi iste'molchilarining turli guruhlariga bo'linishi qayd etilmaganligi, boshqa yo'nalishlarga ta'lim sayohatlari tashkil etiladigan asosiy maqsadli segmentlarga havolalarning yo'qligi hisobga olinishi kerak.

Hozirgi vaqtda ta'lim turizm nafaqat muhim va istiqbolli, balki xalqaro madaniyat integratsiyasining ommaviy yo'nalishi hamdir. Ta'lim turizmi istagan bosqichdagi ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, zamonaviy mualliflar ta'limni turistik xizmatlar turlaridan biri, turizm industriyasi xizmatlari sifatida qarashyapti. Zamonaviy ta'lim turizmi turizm industriyasida butun dunyoda tan olinayotgan intensiv rivojlanayotgan sektor hisoblanadi.

Future Market Insights (FMI) 150 dan ortiq mamlakatlarda mijozlarga xizmat ko'rsatadigan bozor ma'lumotlari va konsalting xizmatlarining yetakchi provayderi hisoblanadi. Quyida FMI tomonidan o'tkazilgan ta'lim turizmi bozori tadqiqoti 2031-yilgacha bo'lgan o'sish traektoriyasiga ta'sir etuvchi asosiy o'sish omillari va cheklovlari haqida ishonchli tushunchalarni taqdim etiladi. Tadqiqot shuningdek, yosh guruhi, ta'lim turi, o'quv kurs turi, hududi asosida bozorning asosiy segmentlarida mavjud bo'lgan turli imkoniyatlarni ochib beradi. Shuningdek, u bozorning asosiy ishtirokchilari tomonidan qabul qilingan turli strategiyalarga e'tibor qaratadi [8].

FMIning ta'lim turizmi bozori so'rovidan asosiy xulosalar:

- Amerikadagi ta'lim turizmi bozorida AQSh hukmronlik qiladi. Buni mamlakatda yetakchi va mukammal ta'lim muassasalari mavjudligi bilan izohlash mumkin.
- Britaniya moslashuvchan ta'lim tizimining mavjudligi tufayli talabalar uchun jozibador destinasiyaga aylanmoqda.
- Chet elliklarning hind madaniyatini o'rganishga bo'lgan qiziqishi ortib borayotgani va turijliklar uchun bitirgandan keyin maxsus stipendiya dasturlariga ega bo'lgan turli kurslarning mavjudligi Hindiston bozorini harakatga keltiruvchi omillardan bo'lmoqda.
- Ta'lim turi bo'yicha magistratura eng ko'p afzal bo'lib qolmoqda, jahon bozorida qariyb 71%lik ulushi mavjud.